

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TORTISHNING ZARURIYATI HAMDA AMALIYOTI

Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada rentabelligi past bo'lgan konlarni xo'jalik faoliyatiga jalb qilish sohasida mavjud bo'lgan muammolar, tabiiy boyliklar uchun soliq stavkalarining yuqrorili, mamlakatimizga xorijiy investorlarini jalb qilishda soliqlarning roli va tabiiy boyliklarni o'zlashtirish bo'yicha joriy qilinishi lozim bo'lgan yengilliklar to'g'risida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: resurs solig'i, nedra solig'i, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. konlar, xorijiy investorlar, geologik qidiruv ishlari, yer qa'ri, litsenziya, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BCG (Boston Consulting Group), IMF.

Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish orqali yuqori darajada qo'shimcha qiymat yaratishdan iborat. Bugungi kunda foydali qazilmalarining turlari bo'yicha zaxira va resurslarni 20 turgacha ko'paytirish hamda rivojlantirish dasturlariga 2022-yilda 1 000,0 mlrd.so'm, 2023-yilda 2 127,5 mlrd.so'm hamda 2024-yilda 2 446,6 mlrd.so'm mablag' ajratish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, yer usti tog'-kon geologiya qidiruv ishlari hajmini 2022 yilda 280,9 ming metr kubga, 2023-yilda 385,0 ming metr kubga, 2024-yilda 407,0 ming metr kubga yetkazish belgilangan¹.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir.

Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида”ги қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-73-сон қарори.



bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar xajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.

Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz xududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xom-ashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud xisoblanadi.

Qazib olingan ruda tarkibidan, asosiy foydali qazilmadan tashqari, unga doir stavkalar belgilangan boshqa xom ashyo ajratib olingan taqdirda yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 449-moddasiga asosan soliq to'lovchilar bo'lib, yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni (bundan buyon ushbu bo'limda foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) deb yuritiladi) amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilari e'tirof etiladi.

Soliq kodeksining 450-moddasiga asosan, soliq solish ob'ekti bo'lib foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha umumiy tushumlar 23,0 trln. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020 yil bilan solishtirganda 1,8 trln. so'mga oshgan. 2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha daromadlarning



asosiy ulushi avvalgidek 68,6 foizi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa to'g'ri keladi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlarning asosiy ulushi (74 %) davlat ulushlariga ega bo'lgan tog'-kon sanoati korxonalariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, 2021 yil 1 yanvardan oltin, palladiy, kumush bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 20 % dan 15 %gacha pasaytirilganiga qaramay, bir yilda tushumlar atigi 0,6 trln. so'mga kamaygan. 2021 yilda oltin va mis narxlarining oshishi, ishlab chiqarish hajmlarining oshirilishi, shuningdek milliy valyuta kursi dinamikasi sabab bo'lganligi ko'rishimiz mumkin.

1-jadval O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining 2019-2021 yillardagi ijrosi tendensiyasi² (mlrd.so'mda)

Ko'rsatkichlar	2019 yil		2020 yil		2021 yil	
	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da
Yalpi ichki mahsulot	529391	x	602551	x	734588	x
Davlat byudjeti daromadlari shu jumladan:	112165	21,2%	132938	22,1%	164681	22,4%
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	19681	3,7%	21257	3,5%	23036	3,1%
Mol-mulk solig'i	2360	0,4%	1974	0,3%	2 457	0,3%
Er solig'i	2313	0,4%	2 387	0,4%	4 083	0,6%
Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	14693	2,8%	16417	2,7%	15812	2,2%
Suv resursidan foydalanganlik uchun soliq	314	0,1%	479	0,1%	684	0,1%

Mazkur keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan shuni kurshimiz mumkinki, O'zbekistonda konsolidatsiyalashgan byudjetining 2019-2021-yillardagi ijrosi tahlil qiladiga bo'lsak, Yer qa'ridan foydalanganlik uchun solig'i 2019-yilda jami 14693 mlrd.so'mni, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,8%ni, 2020-yilda jami 16417 mlrd.so'mni, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,7%ni, 2021-yilda esa 15812 mlrd.so'mni, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,2%ni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar

1. Kam rentabelli konlarni o'zlashtirish amaliyotini keng qo'llab, mahsulot taqsimotiga oid bitmlar doirasida konlarni muayyan muddatga chet ellik investorga bitim asosida berish amaliyotini bekor qilish;
2. Foydali qazilmalarni qazib olish uchun ruxsatnoma (litsenziya) berish tartibini isloh qilish;

² Jadval mu'alif tomonidan Moliya vazirligidan olingan ma'lumotlar tahlil qilingan.



3. Sochma konlarda qimmatbaxo metallarni oltin izlovchilar usulida qidirish faoliyati uchun soliq imtiyozlarini nazarda tutuvchi normalarni O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiqlashtirish kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев, У.(2022). Нукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бо'йича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35

